www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

Arab va ingliz tillarida so‘z turkumlarining chog‘ishtirma tahlili

Hamidova Gulnoza Sur’at qizi

TDSHU arab filologiyasi kafedrasi

2-kurs arab-ingliz guruhi talabasi

+998997431449, suratabdullayev306@gmail.com

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi:**Rustamov A. E**

Annotatsiya: Mazkur maqolada arab va ingliz tillarida so‘zlarning turkumlarga ajratilishi va ikki tilni chog‘ishtirgan holda tahlil qilish va o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so’zlar: Grammatik kategoriyalar (kelishik, ko‘plik, zamon, shaxs-son, mayl), ismlar, turlanish, ko‘makchilar.

Аннотация: Вэтой статье обсуждается классификация слов на арабском и английском языках, а также использование интерактивных методов при анализе и преподавании двух языков.

Ключевые слова: Грамматические категории (согласие, множественное число, время, лицо-число, наклонение), существительные, виды, вспомогательные средства.

Annotation: This article discusses the classification of words in Arabic and English and the use of interactive methods in the analysis and teaching of the two languages.

Keywords: Grammatical categories (agreement, plural, tense, person-number, mood), nouns, types, auxiliaries

Kirish. So‘zlarni turkumlarga ajratish masalasi eng qadimgi davrlardan buyon olimlar diqqatini tortib keladi. Tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan qadimgi hindlar so‘zlarni otlar, fe’llar, yordamchilarga ajratgan edilar. Hindlarning tilshunoslik g‘oyalari bilan oziqlangan arablar so‘zlarni uchga: ismlar, fe’llar, yordamchilarga bo‘ladilar. Hind tilshunoslari fikrlari asosida yunon olimlari, xususan, Arastu ham so‘zlarni ana shunday uchga ajratadi. Keyinchalik faqat yunonlar ismlar ichidan sifatlarni, sonlarni va olmoshlarni chiqaradilar. G‘arb tilshunosligida yunonlarning keyingi tasnifi keng tarqaldi. Rus tilshunoslari ham ana shu an’anaga amal qilib, mustaqil so‘zlarni ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe’lga ajratadilar. Aslida, dastlabki to‘rtta so‘z turkumining barchasi nomlar sanaladi: narsaning nomi (ot), belgining nomi (sifat), miqdorning nomi (son), nomlar o‘rnida almashinib keluvchi so‘zlar (olmosh). Rus tilshunoslari shuning uchun ularni bir umumiy nom ostida ism bildiruvchi so‘zlar nomi bilan birlashtiradilar. Bizning ajdodlarimiz qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni birlashtirgan holda ismlar nomi bilan o‘rganib kelganlar. Bu so‘z turkumlarining deyarli hammasi egalik, kelishik va ko‘plik shakllari bilan o‘zgaradi. Shuning uchun bu shakllar faqat otlargagina emas, balki sifat, son, olmoshlarga, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid so‘zlarga ham daxldordir. Egalik va kelishik shakllari ana shu so‘zlarni boshqa so‘zlarga tobelantirib bog‘lab keladi. Bu esa egalik, kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlarni ismlar atamasi ostida birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. [1]

[1] Hojiyev, azim. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari, -T.: Fan,2010

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

So‘z turkumlari- tildagi so‘zlarning ularda umumiy kategorial ma’noning, grammatik kategoriyalar yagona tizimining, o‘ziga xos o‘zgarish, shakl va so‘z yasalish tiplarining, sintaktik vazifalar umumiyligining mavjudligiga qarab ajratiladigan guruhlar. Har bir tilda o‘ziningi chki imkoniyatlaridan kelib chiqib, so‘z turkumlari soni bir-biridan farq qiladi. Arab tilida so‘z turkumlari uch guruhga bo‘linsa, ingliz tilida ularning soni sakkiztaga yetadi, o‘zbek tilida esa so‘zlar oltita turkumga ajratiladi. Aynan arab va ingliz tilshunosligida so‘zlar va ularning turkumlarga ajratishi quyidagicha bo‘ladi:

Muayyan bir ma’noni anglatgan tovushlar yig‘indisiga so‘z deyilishi barchaga ma’lum. Arab tilida so‘zlar bir harfdan yettita harfgacha tashkil topadi. Masalan: ل من كتب خزانة محمود عندلب محمود عندليب استقبال

Arab tili leksikasidagi barcha so‘zlar uchta katta guruhga bo‘linadi:

Ism (الاسم), fe’l (الفعل), yordamchi so‘zlar(الحرف). Shunday bo‘lsa-da, ba’zi arab tilshunoslari ismlarning to‘rtinchi turi borligini ta’kidalashadi va bu turga “Ismi fe’l”, ya’ni ismlar va fe’l so‘z turkumi oralig‘ida bo‘lgan ba’zi so‘zlarni kiritishadi. Masalan arab tilidagi صف (jim bo‘l) so‘zi buruq maylidagi اسكت fe’li (jim bo‘l) so‘zi bilan teng ma’noda kela oladi. Ham ism, ham fe’l ma’nosida kelgan bu so‘zlarni aksar tilshunoslar hisobga olmaydilar.

1. الاسم- ismlar- Zotga dalolat qiluvchi, zamonga bog‘lanmagan gramatik kategoriya. Bu turkumga o‘zbek tilidagi ot, sifat, olmosh, son, ravish, fe’lning harakat nomi (masdarlar), sifatdosh kabi funksional formalari, ayrim ko‘makchilar, modal so‘zlar kiradi. Bu turga kiruvchi so‘zlar o‘ziga xos 4 ta kategoriyani qabul qiladi:
    1. Holat kategoriyasi.
    2. Jins kategoriyasi.
    3. Kelishik kategoriyasi.
    4. Son kategoriyasi.[2]

Bu hodisa turlanish deyiladi.

Ismlar 3 guruhga bo‘linadi:

1. مضمرٌ -Mudmar- bu guruhga kishilik olmoshlari kiradi.
2. مظهر - Muzhar- atoqli otlar, turdosh otlarning bazilari kiradi.
3. مبهم- Mubham- ko‘rsatish olmoshlari, nisbiy olmoshlar kiradi. [3]

2. الفعل- Ish harakatiga dalolat qiluvchi, zamonga bog‘langan gramatik kategoriya. Ish-harakatni ifodalab, “nima qilmoq?” , “ nima bo‘lmoq?” so‘roqlariga javob beruvchi so‘zlar kiradi. Bu turkumga fe’lning barcha zamonlari, mayllari, nisbatlari, bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllari kiradi. Fe’llar 3 qismga bo‘linadi:
    - الماض – O‘tgan zamon
    - المضارع - Hozirgi zamon

[2] . N.Ibragimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi I jild, T.: 1997

[3] . Arab tili (o‘quv qo‘llanma) / M. Hasanov,-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2018, 360 bet

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

- - الأمر Buyruq mayli

Ingliz tilida esa Verbs- Fe'l- harakat va holatni ifodalovchi so'z turkumi. Masalan, jump (sakramoq), is (bo'lmoq), write (yozmoq). Ingliz tilida fe'llar ikki xil bo'ladi: asosiy fe'llar va yordamchi fe'llar va o'zi bog'langan shaxs yoki narsaning soni bilan moslashadi. Arab tilida esa ish-harskat bajaruvchisi oldin kelganda son va jinsda, fe'l oldin kelgan bo'lsa faqat jinsda moslashadi.

3. - الحرف Harf – O'zidan boshqa bilan bog'lanib kelgandagina ma'no anglatuvchi gramatik kategoriya. Bu turkumga aniqlik artikli, predloglar, turli xil yuklamalar, umuman yordamchi so'zlar kiradi. Harflar ham 3 qismga bo'linadi:

1. Ismga xoslangan: في، من
2. Fe'lga xoslangan: لن، كي،لم
3. Ham fe'l, ham ism bilan birika oladigan: هل، بل

Harflar o'zidan keyingi so'zning harakatini o'zgartirishiga ko'ra 4 guruhga bo'linadi:

1. - الحرف kasra harakatini(qaratqich kelishigi) talab qiluvchilar: من، في، إلا
2. النصب fatha harakatini(tushum kelishigi) talab qiluvchilar: أن، لن، إذا، كي
3. الجزم Jazm sukun harakatini talab qiluvchilar :,لم، لما، لأمّ امر، لأم نهي (lam, lamma, lamun amr, lamun nahiya)
4. Nido harflari: يا

Ismlarni harflar va fe'llardan ajartish uchun belgilar:

1. Kasra harakatini oladi, qaratqich kelishigida keladi.
   a. Tanvin oladi.
   b. Al artiklini(aniqlik) oladi.
   c. Jar harflari o'zidan keyin kasra(qaratqich kelishigi) dagi so'zni talab qiladigan yordamchi so'zlardan keyin kela oladi.
   d. Qasam harflaridan keyin kela oladi.

Fe'llarning belgilari:

a) قد yuklamasi bilan kela olishligi;

b) س va سَوْفَ yuklamalari bilan qo'llana olishi;

c) fe'l tuslanishligida III shaxs, muannas jinsdagi, birlik soniga ega bo'lgan fe'llarning oxirida ت harfining sukunlangan holda kelishi;

d) لاَ yuklamasi bilan kela olishi;

e) لَمْ yuklamasi bilan qo'llana olishi.

Yuqorida aytganimizdek ingliz tilida 8 ta so'z turkumi mavjud va ular:

1. Noun- Ot- shaxs va narsa, shuningdek, joy nomlarini bildirgan so'z turkumi. Masalan, man(erkak), house(uy), happiness(xursandchilik). Otlar, asosan, ingliz tilida artikllar (a, an, the) bilan foydalaniladi.Otlar birlik va ko'plik soniga ega va aniq va mavhum otlarga bo'linadi. Ularga egalik ma'nosini yuklash uchun 's qo'shimchasi qo'shiladi. Otlar

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

gapda turli gap bo‘lagi bo‘lib kela oladi: ega, vositali va vositasiz to‘ldiruvchi, otkesim, hol, undalma va boshqalar.

2. Pronoun- Olmosh- gapda otning o‘rnida almashinib qo‘llana oladigan so‘zlar. Masalan, she(u), we(biz), they(ular). Olmoshlar ham o‘z ichki ma’nolariga ko‘ra bir necha turlarga bo‘linadi: personal pronouns insonlarga va maxsus ajratib ko‘rsatilgan narsalarni ifodalaydi; possessive pronouns egalik ma’nosini bildiradi; reflexsive pronouns boshqa shaxs va narsaga urg‘u berishda foydalaniladi; relative pronouns ajratilgan bo‘lakni izohlash uchun qo‘llanadi; demonstrative pronouns ko’rsatish olmoshlari sifatida ishlatiladi.[4]

3. Verbs- Fe’l- harakat va holatni ifodalovchi so‘z turkumi. Masalan, jump (sakramoq), is (bo‘lmoq), write (yozmoq). Ingliz tilida fe’llar ikki xil bo‘ladi: asosiy fe’llar va yordamchi fe’llar va o’zi bog‘langan shaxs yoki narsaning soni bilan moslashadi.

4. Adjective- Sifatlar- ot va olmoshga bog‘lanib, uning belgisini bildirgan so‘zlar.Masalan, pretty (yoqimtoy), old (eski), blue (havorang). Ular, asosan, qanday? qaysi turdagi? qancha? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Ingliz tilidagi aniqlik (the) va noaniqlik (a, an) artikllari ham shu so‘z turkumi doirasidadir.

5. Adverb- Ravish-fe’l, sifat va boshqa ravishlarning belgisini bildiruvchi so‘z turkumi. Masalan, extremely (nihoyatda), carefully (ehtiyotkorlikbilan), well (yaxshi).Ravishlar fe’l, sifat va ravishlarning belgisini bildirsa ham, hech qachon otga bog‘lanmaydi. Ular qayerda? qachon? qanday qilib? nega? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Ravishlar, asosan, -ly qo‘shimchasi bilan yakunlanadi.

6. Preposition- Predlog- ot yoki olmoshlardan oldin yoki keyin qo‘llanib, gapdagi boshqa so‘zga biriktiradigan so‘zlar. Masalan, by (-gacha), with (bilan), about (haqida).

7. Conjuction- Bog‘lovchi- so‘zlarni va gaplarni bir-biriga bog‘lovchi so‘zlar.Masalan, and (va), but (lekin), while(davomida). Bular o‘zaro teng bo‘lgan gaplarni va ergashgan gapni bosh gapga bog‘lashda ishtirok etishadi.

8. Interjection- Undov so‘zlar- gapda his-hayajonni ifodalash uchun qo‘llanadigan so‘zlar. Masalan, oh, wow, oops.Gapda boshqa so‘z turkumlaridan vergul orqali ajratiladi.[5]

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, arab tili ham, ingliz tili ham o‘ziga xos grammatik qoida va kategoriyalarga ega. Har ikkala tilda ham fe’llar mavjudligi va yordamchi so‘zlarning vazifasida o‘xshashliklar kuzatilsa ham ularnin gapdagi vazifasi, shaxs-sonda tuslanishi va ingliz tilidagi barcha mustaqil so‘z turkumlari arab tilida ismlar nomi ostida birlashishi bilan farqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. N.Ibragimov, M.Yusupov. Arab tili grammatikasi I jild, T.: 1997.
2. https://www.learningarabicwithangela.com/amp/parts-of-speech-in-arabic-grammar-nominal-and-verbal-sentences

[4] Murodov.H.O. All in one grammar book in English, T:2019

[5] . https://www.learningarabicwithangela.com/amp/parts-of-speech-in-arabic-grammar-nominal-and-verbal-sentences

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

3. Murodov.H.O. All in one grammar book in English, T:2019
4. Arab tili (o‘quv qo‘llanma) / M. Hasanov,-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa uyi, 2018, 360 bet
5. Hojiyev, azim. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi va so‘z yasalishining nazariy masalalari, -T.: Fan,2010